

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAUFOV MIRAZIZ MUSTAFAQULOVICH

**SINXRON TARJIMADA TRANSFORMATSIYALARNING QIYOSIY-
CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI (INGLIZ, FRANSUZ, O‘ZBEK TILLARI
RASMIY DISKURSI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Raufov Miraziz Mustafaqulovich

Sinxron tarjimada transformatsiyalarning qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili (ingliz, fransuz, o‘zbek tillari rasmiy diskursi misolida).....3

Рауфов Миразиз Мустафакулович

Сравнительно-сопоставительный анализ трансформаций в синхронном переводе (на примере официального дискурса английского, французского и узбекского языков).....29

Raufov Miraziz Mustafakulovich

Comparative-contrastive analysis of transformations in simultaneous interpretation (on the example of official discourse in English, French, and Uzbek).....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAUFOV MIRAZIZ MUSTAFAQULOVICH

**SINXRON TARJIMADA TRANSFORMATSIYALARNING QIYOSIY-
CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI (INGLIZ, FRANSUZ, O‘ZBEK TILLARI
RASMIY DISKURSI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.2.PhD/Fil4684 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nuu.md.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sayfullayev Anvar Islamovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Djumabayeva Jamila Sharipovna

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nishonov Patxiddin Payziboyevich

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "7" noyabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Farobiy ko'chasi, 400-uy. Tel.: (99871) 246-08-62; faks: (99871) 246-65-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O'zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti (3-qavat, 3-11-xona).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.A.Siddikova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

M.G'.Rabiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

S.E.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarjimashunosligi va tilshunosligida sinxron tarjimani o'rganish, uning kognitiv hamda pragmatik jihatlariga e'tibor qaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo tarjimashunosligi va tarjima amaliyotida sinxron tarjimani amalga oshirishda yuzaga keladigan lingvistik transformatsiyalarni tahlil qilishga oid yangi usullar hamda yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Bu jarayon so'nggi yillarda umumjahon tarjimashunoslik sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar va xalqaro muloqotlarning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlash o'rinlidir. Hozirgi kunda xalqaro anjumanlar, simpoziumlar, shuningdek, boshqa turli tadbirlarda bir vaqtning o'zida bir necha tildan foydalanish, sinxron tarjimani amalga oshirish talab qilinmoqda. Bu esa sinxron tarjimani yanada rivojlantirish va bu borada keng ko'lamli tadqiqotlarni amalga oshirishga undamoqda.

Dunyo tilshunosligi va tarjimashunosligida sinxron tarjima jarayonida voqelanadigan lingvistik transformatsiyalar, turli tillar o'rtasidagi semantik hamda stilistik farqlar, shuningdek, tarjimada qo'llanadigan lingvistik vositalarning milliy-madaniy, pragmatik jihatlar borasida qiyosiy tahlillar qilinmoqda. Xususan, ingliz va fransuz tillariga oid nutqni o'zbek tiliga sinxron tarjima qilishda qo'llanadigan transformatsiyalarni o'rganish hamda qiyoslash masalasiga e'tibor qaratish lozim. Sinxron tarjima jarayonida turli tillar o'rtasida yuzaga keladigan transformatsiyalarni tahlil qilish va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish mazkur ishning dolzarbligini belgilaydi.

Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish hamda yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-maydagi 376-sonli "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ta'kidlanganidek, "jahon adabiyotining o'zbek tilidagi namunalarini tarjima qilish va ularning adabiy-badiiy xususiyatlarini saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish"¹ muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tarjima jarayonida yuzaga keladigan transformatsiyalarni ilmiy tahlil qilish mazkur maqsadga erishishda ustuvor vazifaga aylanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-fevraldagi 140-son "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Tarjimonlar byurosi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorida Tarjimonlar byurosi faoliyatining asosiy vazifalaridan biri sifatida "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari hamda oliy mansabdor shaxslari ishtirokidagi rasmiy tadbirlarni sinxron va izchil tarjima bilan ta'minlash"² belgilangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-

¹ <https://www.lex.uz/uz/docs/-3743182>

² <https://lex.uz/ru/docs/-4203697?ONDATE=18.02.2019>

5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”³, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi⁴ farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁵, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi⁶ qarorlarida ham bir qancha ustovor vazifalar belgilangan.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, sinxron tarjima jarayonida yuzaga keladigan grammatik, semantik va pragmatik transformatsiyalarni tahlil qilish hamda ularning lingvistik xususiyatini tadqiq etish tarjima jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Bu, o‘z navbatida, dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi. Shuningdek, bu mavzuda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari milliy va xalqaro doiradagi muhim ilmiy yangiliklarga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustovor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustovor yo‘nalishiga muvofiq ravishda amalga oshirilgan.

Shuningdek, mazkur tadqiqot milliy ilmiy-innovatsion taraqqiyot dasturlarining tarkibiy qismi bo‘lgan “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni rivojlantirish” vazifasini amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, sinxron tarjimadagi lingvistik transformatsiyalarning qiyosiy tahlili milliy va xalqaro doiradagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sinxron tarjima sohasidagi lingvistik transformatsiyalarning qiyosiy tahlili bo‘yicha turli mamlakatlar olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, A.V.Fedorov, V.N.Komissarov, Y.I.Retsker, L.S.Barxudarov, G.V.Ossovskaya, Feltrak Anna⁷ va boshqalar o‘z tadqiqotlarida sinxron tarjima jarayonida leksik-semantik hamda grammatik transformatsiyalarning asosiy turlari, ularning original matn mazmunini saqlab qolishdagi ahamiyati, sinxron tarjimada transformatsiyalarning milliy-madaniy va stilistik xususiyatlarni yetkazishdagi roli, shuningdek, sinxron tarjimonning kognitiv salohiyati, real vaqtdagi fikrlash mexanizmi, pragmatik moslashuv jarayonini o‘rganish bilan birga, tarjima jarayonida faol qo‘llanadigan improvizatsiya hamda kreativ yondashuvlarning ahamiyatini yoritib berishgan.

³ <https://lex.uz/docs/-4545884>

⁴ <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

⁵ <https://lex.uz/docs/-3171590?ONDATE=04.07.2023%2000>

⁶ <https://lex.uz/en/docs/-5426736?ONDATE=06.02.2024>

⁷ Федоров А.В. Введение в теорию перевода. – М.: ЛГУ, 1983.; Комиссаров В.Н. Теория перевода. – М.: Высшая школа, 1990.; Рецкер Я.И. Теория перевода и интерпретация. – М.: Наука, 1974.; Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975.; Оссовская Г.В. Переводческая деятельность. – М.: Высшая школа, 1985.; Feltrac Anna. Cross-cultural Pragmatic Adjustments in Simultaneous Interpreting. – Oxford: Routledge, 2019.

Shuningdek, mamlakatimizda tarjimashunoslik va tilshunoslik sohalarida og‘zaki tarjima jarayonidagi grammatik, leksik-semantik o‘zgarishlar hamda pragmatik ta’sir tadqiqiga bag‘ishlangan muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. O‘zbek tarjimashunosligida O‘zbek tarjimashunosligida G‘.Salomov, I.G‘afurov, N.Komilov, M.Xolbekov, Sh.Sirojiddinov, G.G‘afurova, K.Jo‘rayev, Q.Musayev, M.Baqoyeva, N.Qambarov, E.Ochilov, G.Odilova, I.Mirzayev, T.Jo‘rayev, O.Mo‘minov, G‘.Hoshimov, G‘.Rahimov, D.Jumanova, R.Shirinova, M.Javbo‘riyev, Sh.Isakova, N.Panjiyeva, N.O‘rmonova, A.Ko‘chiboyev, N.Daminov⁸ va hokazolar tomonidan tarjima nazariyasi hamda amaliyoti, tarjimada ekvivalentlikni ta‘minlashning nazariy asoslari hamda muammolari yechimi, milliy-madaniy elementlarni qayta yaratish va o‘zbek tiliga tarjima qilishda paydo bo‘ladigan semantik hamda leksik qiyinchiliklar, ularni bartaraf etish masalalari atroflicha o‘rganilgan. Biroq sinxron tarjima transformatsiyalarining uch til: ingliz, fransuz va o‘zbek tillari qiyosiy tahlili doirasidagi xususiyatlari yaxlit monografik planda chuqur o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, № I-204-4-5 “Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o‘rtasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar” ilmiy loyihasining “Ingliz, fransuz va o‘zbek tillarining qiyosiy tipologiyasi” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi asosida amalga oshirilgan.

⁸ Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – T.: O‘qituvchi, 1982.; Salomov G‘. Tarjima tashvishlari. – T.: Adabiyot va san‘at, 1983.; Salomov G‘., Komilov N. Do‘stlik ko‘priklari: (Poeziya va tarjima). – T.: Adabiyot va san‘at, 1979.; G‘afurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. – T., 2008.; Xolbekov M. Tarjimashunoslik va tarjima tanqidi. – T.: Navro‘z, 2015.; Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – T.: Mumtoz so‘z, 2011.; Гафурова Г. Развитие перевода в Узбекистане. – T.: Фан, 1973.; Jo‘rayev K., Jo‘rayev E. va boshqalar. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Andijon, 2008.; Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005.; Baqoyeva M. Ingliz va Amerika adabiyotidan o‘zbek tiliga she‘riy tarjima va qiyosiy she‘rshunoslik muammolari. – T.: Fan, 2015.; G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2012.; Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T., 2012.; Odilova G. Ingliz va o‘zbek mumtoz she‘riyati tarjimalarida adekvatlik muammolari: Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2011.; Мирзаев И.К. Проблемы передачи слов обозначающих реалии французской жизни на узбекский язык: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1975.; Mo‘minov O. A guide to consecutive translation. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2013.; Mo‘minov O. A guide to simultaneous translation. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2005.; Xoshimov G‘. K teorii metazyaka translyatologiya (Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari). – Andijon, 2015. – 160 b.; Rahimov G‘. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2016.; Jumanova D. So‘zning til aloqa jarayonidagi fonologik modeli: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – T., 2016.; Shirinova R. Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – T., 2017.; Javbo‘riyev M. Badiiy tarjimada milliy xarakter va tarixiy davr koloritini qayta yaratish (O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasini” tarixiy romanining nemischa tarjimasi misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 1991.; Isaqova Sh. Badiiy tarjimada milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi (Oybekning “Navoiy” romanining fransuzcha tarjimasi misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2004.; Panjiyeva N.N. Когнитивный аспект оценочных номинаций лица в английском и узбекском языках: Дисс. канд. филол. наук. – T., 2004.; O‘rmonova N. Tarjimada tarixiy-arxaiik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi (o‘zbek adabiyotidan fransuz tiliga qilingan tarjimalar tahlili asosida): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 2008.; Ko‘chiboyev A. Badiiy matn tarjimasining pragmatik aspektlari / Matn pragmatikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Samarqand, 2015.; Daminov N.Q. Sinxron tarjima jarayonida kompressiya va dekompressiya usulidan foydalanish (rasmiiy nutqlar misolida): Filol. fan. fals. dok. ... diss. avtoref. – T., 2024.

Tadqiqotning maqsadi ingliz, fransuz va o'zbek tillarida qilingan sinxron tarjimalarda qo'llangan transformatsiyalarning lingvistik (leksik, grammatik) hamda ekstralingvistik (kognitiv-pragmatik) xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sinxron tarjimada qo'llaniladigan transformatsiyalarning asosiy funksiyalarini aniqlash va ularning tarjima jarayonidagi samaradorligini o'rganish;

sinxron tarjimadagi grammatik va leksik-semantik transformatsiyalar turlarini tizimli tahlil qilish hamda ularning qo'llanish xususiyatlarini o'rganish;

ekvivalenti mavjud bo'lmagan milliy-madaniy birliklarning adekvat tarjimasiga erishishda tarjima transformatsiyalarining lingvistik hamda madaniy-kommunikativ rolini aniqlash;

ingliz, fransuz va o'zbek tillariaro sinxron tarjimada ma'no uzatilishini ta'minlaydigan psixolingvistik jarayonlarni (stressga moslashish, tezkor qaror qabul qilish, diqqatni taqsimlash, xotira boshqaruvi) tadqiq qilish hamda ularning tarjima sifatini oshirishdagi ahamiyatini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Fransiya Respublikasi Prezidenti Emanuel Makron hamda BMT Bosh Kotibi Antonio Guterrishning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assamblyesida so'zlagan nutqlarining ingliz, fransuz, o'zbek tillaridagi sinxron tarjimasidagi lingvistik farqlar hamda ekstralingvistik omillar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz, fransuz va o'zbek tillariaro sinxron tarjimada transformatsiyalarning leksik-grammatik hamda semantik xususiyatlari, shuningdek, kognitiv-pragmatik asoslari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-chog'ishtirma, komponent, struktur-semantik va tasniflash tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz, fransuz va o'zbek tillariaro sinxron tarjimada transformatsiyalarning qiyosiy-chog'ishtirma tahlili asosida ularning tarjima jarayonidagi asosiy funksiyalari – mazmunni aniq yetkazish, grammatik va leksik moslikni ta'minlash, nutq tezligiga moslashish mexanizmlari aniqlangan va ushbu funksiyalarning tarjima jarayonida xatoliklarni minimallashtirish hamda vaqtni optimallashtirishga sezilarli darajada ta'sir qilishi isbotlangan;

ingliz, fransuz va o'zbek tillariaro sinxron tarjimada keng qo'llaniladigan leksik-semantik, ya'ni sinonimiya, antonimiya, kontekstual almashtirish hamda grammatik – so'z tartibi, gap qurilishi, qo'shimcha elementlar transformatsiyalarining har bir til juftligiga xos o'xshash va farqli jihatlari, jumladan, qo'llanish chastotasi, semantik moslik darajasi, kognitiv yuklamani yengillashtirishdagi roli tizimli tahlil qilinib, nazariy xulosalar berilgan va misollar bilan asoslangan;

sinxron tarjimada ekvivalenti mavjud bo'lmagan milliy-madaniy birliklarning adekvat tarjimasiga erishishda transformatsiyalardan samarali foydalanishning zarurligi ingliz, fransuz va o'zbek tillariga sinxron tarjimalari tahlili asosida lingvistik hamda madaniy-kommunikativ ahamiyati ochib berilgan;

sinxron tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik transformatsiyalarning qonuniyatlarini belgilovchi psixolingvistik mexanizmlar – tarjimonning stress sharoitida barqaror ishlashi, diqqatni bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatga taqsimlashi, tezkor qaror qabul qilish va qisqa muddatli xotira resurslarini samarali boshqarish kabi kognitiv jarayonlar tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning tarjima sifatini oshirish, xatolarni minimallashtirishdagi roli dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz, fransuz va o'zbek tillariaro sinxron tarjimada leksik-semantik hamda grammatik transformatsiyalarning qiyosiy tahlilini amalga oshirishda qo'llangan tahlil metodlaridan boshqa tillararo sinxron tarjima jarayonida qo'llanish masalasi ochib berilgan;

sinxron tarjimadagi leksik-semantik va grammatik transformatsiyalar asosida shakllangan tillararo o'xshashlik hamda farqlarning tadqiq qilinganligi tillar doirasida amalga oshiriladigan sinxron tarjimalarda uchraydigan qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga amaliy yordam berishi mumkinligi izohlangan;

ingliz, fransuz va o'zbek tillariaro sinxron tarjima jarayonida uchraydigan transformatsiyalarning turlari, vazifalari, shuningdek, har bir tilga xos leksik, semantik va grammatik o'zgarishlar doirasidagi tahlil natijalaridan xalqaro konferensiya hamda ilmiy tadbirlarda foydalanishga, sinxron tarjima amaliyotining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning ilmiy yondashuvlar, metodologik usullar yordamida asoslanganligi, nazariy g'oyalar va ma'lumotlarning ishonchli manbalardan olinganligi, ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalarning sinovdan o'tkazilganligi hamda natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ingliz, fransuz va o'zbek tillariaro sinxron tarjima jarayonida qo'llanadigan transformatsiyalarning leksik-semantik, grammatik va pragmatik jihatlari, lingvistik transformatsiya jarayonlarining kognitiv mexanizmlari (tarjimonning real vaqtdagi fikrlash jarayoni va qabul qiladigan qarorlari) bilan bog'liqligi bo'yicha chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalardan har bir til tabiatiga ko'ra voqelanadigan tarjima transformatsiyalarining xususiyatlarini aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sinxron tarjima amaliyotini takomillashtirish, sifatli sinxron tarjimani amalga oshirish, oliy o'quv yurtlarida tarjima nazariyasi va amaliyoti, filologiya, xorijiy tillar kabi yo'nalishlar doirasida tashkil qilingan bakalavr yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi uchun "Sinxron tarjima nazariyasi", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Og'zaki tarjima", "Tarjimashunoslikka kirish" va "Qiyosiy tipologiya" fanlari bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar hamda amaliy mashg'ulot dasturlari tayyorlashda manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz, fransuz va o'zbek tillariaro sinxron tarjimada transformatsiyalarning qiyosiy tahlili asosida:

sinxron tarjima jarayonida ingliz, fransuz va o'zbek tillarining xususiyatlariga muvofiq tarzda transformatsiya turlari (leksik, grammatik va semantik)ning tanlanishi natijasida chiqarilgan ilmiy xulosalardan Toshkent shahridagi Fransiya Alyansida olib borilgan sinxron tarjimalar hamda xalqaro konferensiyalarda foydalanilgan (Toshkent Fransuz Alyansining 2024-yil 30-noyabrdagi 16-sonli ma'lumotnomasi). Natijada sinxron tarjima jarayonida qo'llanadigan transformatsiyalar sifati va samaradorligining oshishiga erishilgan;

sinxron tarjima jarayonida yuzaga keladigan tillaro o'xshashlik va farqlarni aniqlashga qaratilgan amaliy qoidalar ishlab chiqilganligi, natijada sinxron tarjimonlarda muammolarga darhol yechim topish ko'nikmasini rivojlantirish bilan bog'liq nazariy xulosalar Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasining professor-o'qituvchilari tomonidan o'qitilayotgan "Amaliy sinxron tarjima" (magistratura mutaxassisligi talabalari uchun) fani o'quv dasturini tuzish, jumladan, "Sinxron tarjimada transformatsiyalardan foydalanish", "Turli leksika va ularning tarjimasi", "Sinxron tarjimada leksik muammolar" kabi mavzularning kiritilishiga asos bo'lib xizmat qilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 19-dekabrda 16-4201-sonli ma'lumotnomasi). Bundan tashqari, Tarjima nazariyasi va amaliyoti ta'lim yo'nalishi talabalarining sinxron tarjimaga doir nazariy hamda amaliy bilimlarining kengayishiga erishilgan;

sinxron tarjimada ekvivalentlik muammosi, adekvat tarjimaga erishishdagi ahamiyati va ekvivalenti mavjud bo'lmagan milliy-madaniy birliklarning berilishiga doir xulosa hamda tavsiyalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi FZ-2019062034 raqamli "Xorijiy tillarda so'zlashuvchilar uchun o'zbek tilini intensiv o'rgatuvchi multimedia mahsulotlarini yaratish" loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 19-dekabrda 24-806-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqot materiallari tarjimashunoslik, leksikografiya va lingvodidaktika kabi fanlarni o'qitish hamda mazkur amaliy loyiha bo'yicha elektron darsliklar, lug'atlar va multimedia materiallarini tayyorlashda muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta ilmiy maqola, jumladan, 8 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 147 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati tavsiflangan, o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti ochib berilgan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangligi va amaliy natijalari izohlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sinxron tarjima asoslari va uning taraqqiyoti”** deb nomlanuvchi birinchi bobida sinxron tarjima tushunchasi va uning asoslari bilan bir qatorda sinxron tarjimaning paydo bo'lishidan tortib bugungi kungacha rivojlanish bosqichlari, O'zbekistonda sinxron tarjimonlar tayyorlashga doir nazariy qarashlar tahlil qilingan.

Mazkur bobning *“Sinxron tarjima tushunchasi va uning asoslari”* deb nomlangan birinchi faslida sinxron tarjima tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida jahon hamda o'zbek tarjimashunos olimlarining fikrlari berilgan.

Sinxron tarjima – bu og'zaki tarjimaning eng murakkab va tezkor turlaridan biri bo'lib, u ma'lumotni bir vaqtning o'zida eshitish, qayta ishlash va boshqa tilda yangidan ifoda etish jarayonini qamrab oladi. Sinxron tarjima, asosan, xalqaro simpoziumlar, anjumanlar va diplomatik uchrashuvlarda qo'llaniladi.

Ta'kidlab o'tish zarur, sinxron tarjima kognitiv, lingvistik va texnologik jarayonlarning uyg'unligidan tashkil topgan. Uning asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat:

- a) qisqa muddatli xotira;
- b) tinglash, anglash va gapirish amaliyotini bir vaqtda bajarish;
- c) ehtimoliy prognozlash⁹.

Sinxron tarjima jarayonining eng muhim xususiyatlaridan biri – bu bir vaqtning o'zida bir nechta kognitiv jarayonlarning uyg'unlikda amalga oshirilishidir. Har bir bosqich turli xil jarayonlarni qamrab olsa-da, ular umumiy maqsad – asliyat tilidan qabul qilingan ma'lumotni tarjima tilida to'g'ri va samarali tarjima qilish yo'lida integratsiyalashgan tarzda ishlaydi. Bu jarayonning hozirjavobligi, ya'ni real vaqtda sodir bo'lishi, uning asosiy belgilaridan biridir.

D.Seleskovich ta'kidlaganidek, sinxron tarjima jarayoni bir vaqtning o'zida bir nechta bosqichlarni qamrab oladi:

1. *Intellectual idrok va tahlil bosqichi.*
2. *So'zma-so'zlikni yoddan chiqarish va ma'noga e'tibor berish.*
3. *Tarjima tilida yangi signal yaratish*¹⁰.

⁹ Вероятностное прогнозирование в деятельности человека. Под ред. И.М.Фейгенберга, Г.Е.Журавлева. – М.: Наука, 1977. – С. 391.

¹⁰ Seleskovitch D. Interpretation, A Psychological Approach to Translating // Translation. Application and Research. Ed. by Richard W.Brislin. – N.Y.: Gardner Press, 1976. – P. 92-115.

Ushbu bosqichlarning barchasi bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi, ya'ni sinxron tarjima jarayonida ular o'zaro uzviy bog'liq holda kechadi. Har bir bosqichning samaradorligi butun jarayonning muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Sinxron tarjima jarayonining yana bir muhim xususiyati – bu uning “ortga qaytarib bo'lmasiligi”¹¹dir. Tarjimon notiqning har bir so'zini bir marta eshitib, uning ma'nosini tushunishi va shu zahotiyoq tarjima qilishga kirishishi lozim.

Ko'plab tadqiqotchilar, jumladan, Saymon Garrod, Martin Pikering, Aleksandr Chernov, Yelena Kubryakova, Mariya Korovkina¹² va boshqalar sinxron tarjima jarayonida so'zlangan nutqdan inferensial ma'no chiqarib olish amaliyotining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi. Ular ta'kidlashicha, tarjimon faqat eshitgan so'zlarni emas, balki kontekst va vaziyatdan kelib chiqib, yashirin ma'nolarni ham to'g'ri anglashi hamda qayta yaratishi kerak.

R.de Bogrand ta'kidlaganidek, konferensiya muhitida sinxron tarjima jarayoni muloqotning integrativ fenomeni sifatida namoyon bo'ladi¹³. U konferensiyalarni ekspertlar tomonidan muhim strategik masalalar bo'yicha kelishuvlarga erishish uchun o'tkaziladigan muloqot maydoni sifatida ta'riflaydi. Ushbu muloqotda sinxron tarjimonlar asosiy vositachi sifatida muhim rol o'ynaydi.

Sinxron tarjima jarayonining asosiy jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) *xotira yuklamasi*

b) *diqqat taqsimoti*

c) *nutqning keyingi qismini ehtimoliy taxmin qilish*

d) *nutqni kompressiya qilish*

B.Osokinning ta'kidlashicha, diqqatni bir necha vazifaga taqsimlash qobiliyati sinxron tarjimon faoliyatining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi¹⁴. Tarjimon nutqning mantiqiy rivojlanishi asosida notiqning keyingi fikrlarini taxmin qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. K.Monachelli bu jarayonni “o'zaro ta'sir fenomeni”¹⁵ deb atab, tarjimonning quyi signallarni tushunish orqali yuqori darajadagi intensiyani anglashini ta'kidlaydi.

Mazkur bobning “*Sinxron tarjimaning rivojlanishi*” deb nomlangan ikkinchi faslida sinxron tarjimaning uzoq o'tmishidan to bugungi kungacha rivojlanish taraqqiyoti haqida so'z yuritilgan.

¹¹ O'sha sahifa.

¹² Garrod S., Pickering M. Why Is Conversation so Easy? // Trends in Cognitive Sciences, 2004. Vol. 8. No.1.; Chernov G. Message Redundancy and Message Anticipation in Simultaneous Interpretation // Bridging the Gap: Empirical Research in Simultaneous Interpretation / ed. by S.Lambert, B.Moser-Mercer. – Amsterdam-Philadelphia: John Benjamins, 1994.; Кубрякова Е.С. Язык и знание. На пути получения знаний о языке. Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М., 2004.; Коровкина М.Е., Семенов А.Л., Рыкова П.А. Перевод и культура: взаимодействие и взаимовлияние: сб. тез. IV общерос. науч. онлайн-конф. с междунар. участием (г. Нижний Новгород, 10-11 октября 2020 г.) / отв. ред. А.В.Иванов. – Н.Новгород: НГЛУ, 2020.

¹³ Beaugrande R. Consultations, conferences and proceedings: their role as discourse translation // Language, discourse and translation in the West and Middle East. – Amsterdam: Benjamins, 1992. – P. 256.

¹⁴ Осокин Б.А. Введение в теорию и практику перевода. Перевод политологического текста. Теоретические и практические основы перевода с английского языка на русский и с русского языка на английский. – М.: РОССПЭН, 2008. – С. 152.

¹⁵ Monacelli C. Self-preservation in simultaneous interpreting: surviving the role. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2009. – P. 182.

Ilmiy izlanishlar, tadqiqotlardan ma'lumki, sinxron tarjima zamonaviy tarjimashunoslikning alohida yo'nalishi sifatida o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini o'tagan. XX asrda xalqaro tashkilotlarning vujudga kelishi, jumladan, 1919-yilda Millatlar Ligasi va 1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning tashkil topishi, yangi tarjima turlariga bo'lgan ehtiyojni yaqqol namoyon qildi¹⁶. V.Ilyuxin bu jarayonlarni "...sinxron tarjimaning shakllanishi va rivojlanishiga turtki bo'lgan muhim omillar"¹⁷ sifatida sanab o'tadi.

Sinxron tarjima g'oyasini ilk marta amerikalik tadbirkor Eduard Fileyn ilgari surgan¹⁸. U Millatlar Ligasida qo'llanilayotgan ketma-ket tarjima usulining vaqt samaradorligi nuqtayi nazaridan yetarli emasligiga e'tibor qaratdi. Bu usulni takomillashtirish maqsadida E.Fileyn 1925-yilda Millatlar Ligasi kotibiyatiga yangi taklif kiritdi¹⁹. Uning g'oyasiga ko'ra, tarjimon maxsus jihozlangan xonada – kabinada o'tirishi kerak bo'lib, u telefon orqali notiq nutqini eshitib, shu zahoti mikrofon orqali tarjima qilishi talab etilgan.

Sinxron tarjima ilk bor 1919-yilda Parij tinchlik konferensiyasida tajriba sifatida qo'llanilgan²⁰. Boshida tarjima jarayoni ketma-ket tarjima shaklida tashkil etilgan bo'lib, bu juda ko'p vaqt talab qilar va tinglovchilarga noqulaylik tug'dirardi. Shu bois, sinxron tarjimaga bo'lgan ehtiyoj ortdi.

Birinchi bobning so'nggi fasli "*Sinxron tarjima turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari*" deb nomlangan bo'lib, sinxron tarjimaning turlari hamda har bir turning o'ziga xos xususiyatlari tasniflangan.

Tadqiqotimiz jarayonida shuni guvohi bo'ldikki, sinxron tarjima ham tadbirning xususiyati, ishtirokchilar soni va texnik imkoniyatlarga qarab quyidagi turlarga bo'linadi: bevosita sinxron tarjima, pichirlab tarjima qilish, qog'ozdan (varaqdan) tarjima qilish, oldindan tarjima qilingan matnni sinxron o'qish, sinxron-ketma-ket tarjima (simconsec).

Bevosita sinxron tarjima jarayonining asosiy afzalliklaridan biri – ma'lumotlarni uzatishda vaqtni sezilarli darajada tejashdir. Agar xalqaro miqyosdagi tadbirlarda ketma-ket tarjima qo'llanilganida, V.Komissarovning fikriga ko'ra, tadbirning umumiy davomiyligi ikki baravarga uzaygan bo'lar edi²¹.

Sinxron tarjimaning **pichirlash (chuchotage)** deb nomlanuvchi turida sinxron tarjimon maxsus kabinadan foydalanmaydi, balki tinglovchiga yaqin joylashgan holda ish olib boradi. Bu usul, odatda, kichik guruh yoki yakka shaxsga sinxron tarjima zarur bo'lgan hollarda samarali hisoblanadi.

Sinxron tarjimaning yana bir turi nutqning tarjimasi yozilgan **varaqdan o'qib berish**, ya'ni so'zlovchining nutqini sinxron tarjima kabinasida turib so'zlovchi bilan bir vaqtda o'qib berish hisoblanadi.

¹⁶ G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2012. – B. 168.

¹⁷ Илюхин В.М. Стратегии в синхронном переводе (на материале англо-русской и русско-английской комбинаций перевода): Дис. ... канд. филол. наук. – М.: Московский Ордена Дружбы Народов Государственный Лингвистический Университет, 2001. – С. 106.

¹⁸ O'sha manba. – B. 7.

¹⁹ O'sha sahifa.

²⁰ Чернов Г.В. Теория и практика синхронного перевода. Изд. 2-е. – М.: Изд-во ЛКИ, 2007. – С. 3.

²¹ Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – С. 89.

Sinxron tarjima turlaridan biri – **avvaldan tarjima qilingan matnni sinxron o‘qib berish** jarayoni bo‘lib, bu BMT tarjimoni Lin Vissonning ta’rificha, Amerika madaniyatida “Van Doren” deb ataladi²². Bu usulda sinxron tarjimon matnni notiq nutqiga moslashtirgan holda o‘qib beradi.

Dissertasiyaning “**Sinxron tarjimada lingvistik transformatsiyalar va ekvivalentlik muammosi**” deb nomlanuvchi ikkinchi bobida sinxron tarjimada transformatsiya tushunchasi hamda sinxron tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik o‘zgarishlar, ularning funksional zarurati va qo‘llanish sharoitlari tahlil qilingan. Jumladan, grammatik, leksik va semantik transformatsiyalar misollar asosida o‘rganilib, ularning mazmunni to‘g‘ri yetkazishdagi roli ochib berilgan. Shuningdek, tarjimada ekvivalentlikni ta’minlash muammolari ko‘rib chiqilib, tillararo tafovutlarni bartaraf etish strategiyalari asoslab berilgan.

Ikkinchi bobning birinchi fasli “*Sinxron tarjimada transformatsiya tushunchasi: leksik transformatsiyalar*” deb nomlangan bo‘lib, unda sinxron tarjima jarayonida qo‘llaniladigan transformatsiya tushunchasi va unga tarjimashunos olimlar tomonida berigan ta’riflar bilan bir qatorda leksik transformatsiyalar hamda ularning turlari haqida so‘z yuritilgan.

Shu nuqtayi nazardan tarjima transformatsiyalari turli ilmiy manbalarda turli ta’riflar bilan izohlangan. Jumladan, Y.I.Retsker o‘zining “Tarjima nazariyasi va tarjima amaliyoti” (“Теория перевода и переводческая практика”) asarida transformatsiyani “tarjima jarayonida asliyat tilidagi til birligini tarjima tilda shaklan farq qiluvchi, biroq mazmunan mos keluvchi birlik bilan almashtirish”²³ deb ta’riflaydi.

O‘zbek tarjimashunos olimlari N.Qambarov, O.Mo‘minov va Q.Musayev tomonidan yozilgan “Tarjima nazariyasi” kitobida transformatsiya tushunchasi hamda uning turlari keng yoritilgan. Ularning ta’kidlashicha, transformatsiyalar mazmunni ifoda etishda o‘zbek tilining tuzilishiga moslashtirish zarurati bilan bog‘liq holda turli grammatik va leksik o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi²⁴. Ularning ta’rifiga ko‘ra, “Transformatsiyalardan foydalanish orqali asliyat matnining semantikasi buzilmagan holda yangi tilda to‘g‘ri va tushunarli mazmun yaratiladi”²⁵.

Bizning fikrimizcha, sinxron tarjima jarayonida transformatsiyalar asosiy tarjima vositalaridan bo‘lib, ular asliyat va tarjima tillari o‘rtasidagi farqlarni bartaraf etish hamda ma’lumotni ravon va tushunarli shaklda yetkazishga xizmat qiladi.

Tarjima jarayonida uchraydigan turli o‘zgarishlar *umumiy* va *maxsus* transformatsiyalarga bo‘linadi. Umumiy transformatsiyalar tillar o‘rtasidagi universal o‘zgarishlarni qamrab olsa, maxsus transformatsiyalar sinxron tarjima jarayonida ma’lum vaziyatga mos ravishda qo‘llaniladigan o‘zgarishlardan iborat.

Leksik transformatsiyalar. Leksik transformatsiyalar nutqda ma’nolarni to‘g‘ri ifodalash va tarjima tiliga to‘g‘ri moslashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Sinxron

²² Виссон Л. Синхронный перевод с русского на английский. – М.: Р. Валент, 1999. – С. 23.

²³ Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: Международные отношения, 1974. – С. 38.

²⁴ G‘ofurov I., Mo‘minov O., Kambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. – B. 106.

²⁵ O‘sha sahifa.

tarjimonlar bunday transformatsiyalardan juda keng foydalanadi, ayniqsa, diplomatik uchrashuvlarda, notiqning o'ziga xos nutq xususiyatlarini tushuntirishda muhimdir.

Modulyatsiya: Modulyatsiya sinxron tarjima jarayonida ma'noni saqlab qolgan holda, ma'lum bir fikr yoki mazmunni boshqa nuqtai nazardan yoki grammatik strukturani o'zgartirish orqali qayta ifodalashga xizmat qiladi. Uning asosiy vazifasi – manba tildagi ibora yoki gapning tinglovchilar uchun tushunarli va kontekstga mos shaklda tarjima tilida qayta bayon qilishdir. Sinxron tarjimada u, ayniqsa, tinglovchilarga ma'lumotni oson tushuntirish maqsadida qo'llaniladi.

Masalan, ingliz tilida (asliyat tili): *"We must be united. We have seen, when countries go in their own direction, the virus goes in every direction"*²⁶.

Fransuz tilida (tarjima tili): *"Nous devons être unis. Nous avons vu que lorsque les pays suivent leur propre direction, le virus se propage partout"*.

O'zbek tilida (tarjima tili): *"Biz birlashishimiz kerak. Mamlakatlar alohida yo'nalishda harakat qilsalar, virus hamma joyga tarqaladi"*.

Ingliz tilidagi *"the virus goes in every direction"* va fransuz tilidagi *"le virus se propage partout"* so'z birikmalari to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga tarjima qilinganda, noaniqlik paydo bo'lishi mumkin edi. Masalan, so'zma-so'z tarjima *"virus har yo'nalishga ketadi"* yoki *"virus barcha yo'llarga tarqaladi"* degan ma'noni ifodalagan bo'lar edi, lekin bu ifoda o'zbek tilida tabiiy eshitilmaydi. Ingliz va fransuz tillaridagi fikr mazmuni saqlab qolinganda holda, o'zbek tilida *"virus hamma joyga tarqaladi"* shaklida qayta bayon qilinadi. Bunda tinglovchiga mazmun to'g'ri va ravon tarzda tushuntirilishiga erishiladi. Leksika yordamida qayta bayon qiladigan bo'lsak, *"goes in every direction"* va *"se propage partout"* ifodalari ma'no jihatdan bir xil bo'lsa-da, o'zbek tilida ularni eng tushunarli shaklda bayon qilish uchun soddalashtirish zarur bo'lgan. Demak, bu yerda modulyatsiya orqali tinglovchi uchun tabiiy tarjima yaratilgan deb hisoblaymiz.

Aniqlashtirish (konkretizatsiya yoki konkretlashtirish): asliyat tilidagi keng yoki umumiy ma'noli so'zlarni tarjima tilidagi kontekstga mos ravishda aniq, mukammal va ravon tushunarli so'zlarga almashtirish jarayonidir. Sinxron tarjima davomida tarjimon asliyat tilidagi umumiy so'zlardan foydalangan holda, ularni kontekst talabiga qarab aniqlashtirishi zarur.

Masalan, asliyat tilida (ingliz tili):

*"In many places, the pandemic coupled with conflict and disruption is dealing crippling blows to food security"*²⁷.

Sinxron tarjima (fransuz tiliga):

"Dans de nombreux endroits, la pandémie, associée aux conflits et aux perturbations, porte de graves coups à la sécurité alimentaire".

Sinxron tarjima (o'zbek tiliga):

²⁶ Address to the Opening of the General Debate of the 75th Session of the General Assembly // <https://www.un.org/sg/en/content/sg/speeches/2020-09-22/address-the-opening-of-the-general-debate-of-the-75th-session-of-the-general-assembly#:~:text=António%20Guterres,make%20sure%20we%20choose%20wisely>

²⁷ Address to the Opening of the General Debate of the 75th Session of the General Assembly // <https://www.un.org/sg/en/content/sg/speeches/2020-09-22/address-the-opening-of-the-general-debate-of-the-75th-session-of-the-general-assembly#:~:text=António%20Guterres,make%20sure%20we%20choose%20wisely>

“Ko‘plab joylarda koronavirus pandemiyasi, mojarolar va beqarorlik oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy zarar yetkazmoqda”.

“The pandemic” va *“la pandémie”* atamaları ingliz hamda fransuz tillarida umumiy pandemiyani ifodalaydi. So‘zma-so‘z *“pandemiya”* deb tarjima qilish mumkin bo‘lsa-da, bu joyda tarjimon aniqlashtirish (konkretlashtirish) transformatsiyasidan foydalanib, uni *“koronavirus pandemiyasi”* deb bergan. Bu atama orqali tinglovchilar uchun kontekst yanada aniqroq va tushunarli bo‘lishiga erishilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli *“Grammatik transformatsiyalarning sinxron tarjimada qo‘llanish xususiyatlari”* deb nomlanga bo‘lib, unda sinxron tarjima jarayonida grammatik transformatsiyalarning qo‘llanilish xususiyatlari yoritib berilgan.

Sinxron tarjima jarayonida asliyatdagi gapning ma’nosini saqlagan holda, uning ichki tuzilishi, ya’ni gap bo‘laklarining tartibi va vazifalari tarjima tilining sintaktik qoidalariga mos ravishda o‘zgartiriladi. Bu jarayon *gap bo‘laklarini almashtirish*, ya’ni grammatik transformatsiyaning bir turi deb ataladi. Unda ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi yoki hol kabi gap bo‘laklari boshqa birining o‘rniga o‘tkaziladi yoki hatto boshqa turdagi gap bo‘lagiga aylanadi. Bu o‘zgarish, odatda, tillar o‘rtasidagi so‘z tartibi erkinligi, uslubiy farqlar va nutqning tabiiyligini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Masalan, ingliz tilida (asliyat tili): *“Millions of people in South Sudan face the risk of famine”*²⁸.

Fransuz tilida (tarjima tili): *“Des millions de personnes au Soudan du Sud risquent la famine”*.

O‘zbek tilida (tarjima tili): *“Janubiy Sudanda millionlab insonlar ocharchilik xavfi ostida qolmoqda”*.

Ushbu gapda ingliz tilidagi *Millions of people* gapning egasi hisoblanadi va u gap boshida keladi. *face the risk of famine* – kesim (predicate) bo‘lib, harakatni anglatadi.

Fransuz tilida ham asosiy ega – *Des millions de personnes au Soudan du Sud* – gap boshida turibdi va fe’l *risquent* orqali bildiruvchi ifoda etilgan. So‘z tartibi deyarli o‘zgarmagan, ammo grammatik qo‘shimchalar, grammatik shakllar qo‘shilgan.

Ergash gaplar, ayniqsa, anglo-sakson uslubida, to‘liq jumlar bilan ifoda etiladi: *“The countries that were affected by the crisis...”* kabi. Lekin tarjima tili, masalan, o‘zbek yoki fransuz tillarida bu tuzilmani soddaroq shaklda berishga ehtiyoj tug‘iladi. Shuning uchun bu kabi gaplar *sifatdoshli birikma* (ko‘pincha -gan/-gana/-lgan shaklda), *predlogli birikma* (masalan, “due to”, “because of”) yoki *otli birikma* yoki *kirish gaplarga* (masalan, “the fact that...”) bilan almashtiriladi.

Misol uchun, ingliz tilida (asliyat tili):

*“We must support the countries that have been most affected by the crisis”*²⁹.

²⁸ Address to the Opening of the General Debate of the 75th Session of the General Assembly // <https://www.un.org/sg/en/content/sg/speeches/2020-09-22/address-the-opening-of-the-general-debate-of-the-75th-session-of-the-general-assembly#:~:text=António%20Guterres,make%20sure%20we%20choose%20wisely>.

²⁹ O‘sha manba.

Fransuzcha tarjima:

“Nous devons soutenir les pays les plus touchés par la crise”.

O‘zbekcha tarjima:

“Biz inqirozdan eng ko‘p jabr ko‘rgan mamlakatlarni qo‘llab-quvvatlashimiz kerak”.

Ingliz tilidagi *that have been most affected by the crisis* – bu aniqlovchi *ergash gap* bo‘lib, *countries* so‘ziga bog‘langan va uni aniqlab kelgan.

Sinxron tarjima davomida har ikki tilning grammatik va leksik qoidalari o‘rtasidagi nomutanosibliklarni yengishda leksik-grammatik transformatsiyalar asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur bobning so‘nggi fasli *“Sinxron tarjima amaliyotida ekvivalent tanlash masalasi”* deb nomlangan bo‘lib, unda sinxron tarjima jarayonida tarjimonning oldida turgan vazifalaridan biri – ekvivalentlikni ta‘minlash masalasi va uni ta‘minlash uchun tarjimon strategiyalari haqida so‘z yuritilgan.

Ekvivalentlik sinxron tarjimada ma‘lumotni faqat semantik darajada emas, balki pragmatik, funksional va kommunikativ jihatdan ham to‘g‘ri yetkazish imkonini beradi. Agar ekvivalentlik ta‘minlanmasa, tinglovchi nutqning maqsadini to‘g‘ri tushunmasligi, hatto noto‘g‘ri talqin qilishi mumkin. Bu, ayniqsa, siyosiy nutqlar, diplomatik muzokaralar yoki jamoatchilik oldidagi chiqishlarda jiddiy xato va tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

M.Y.Svillingning fikriga ko‘ra, sinxron tarjimada mutarjim oldida ikki xil xatar bo‘ladi: biri – *o‘ta erkinlik*, ya‘ni asliyat tilidagi nutqdan juda uzoqlashib ketish; ikkinchisi esa – *bukvalizm*, ya‘ni so‘zma-so‘z tarjimaga qattiq yopishib olish³⁰. Ikkinchi holatda, sinxron tarjimon nutqning tuzilishi va leksik qurilishiga shunchalik bog‘lanib qoladiki, bu kommunikativ ta‘sirning pasayishiga, ma‘noning noaniq ifodalanishiga, yoki nutqning qabul qilinishida tushunmovchilikka sabab bo‘ladi. Shu tarzda tarjimalarda tinglovchi nutqni yoki to‘liq tushunmaydi yoki his qilmaydi, chunki nutq unga begona va sun‘iy tuyuladi.

Sinxron tarjima amaliyotida tarjimon faqat lingvistik ma‘lumotni emas, balki manba nutqning ta‘sirini, maqsadini va kontekstini ham tarjima tilida aniq ifodalashga harakat qiladi. Lekin bu jarayonda ikki asosiy talab – *kommunikativ-funksional ekvivalentlik* va *semantik-strukturaviy yaqinlik* ko‘p hollarda bir-biriga zid keladi. So‘zma-so‘z tarjima qilish amaliyotiga qattiq bog‘lanish natijasida manba nutqning ta‘siri yo‘qolishi mumkin, erkinlikka yo‘l qo‘yish esa asl ma‘noni o‘zgartirib yuborish ehtimoli bor.

Sinxron tarjimon ushbu muvozanatni ta‘minlash uchun tarjima transformatsiyalaridan, ya‘ni grammatik, leksik, semantik o‘zgartirishlardan foydalanadi.

A) Ifodaviy metafora va adaptatsiya.

³⁰ Цвиллинг М.Я. Некоторые положения теории перевода и их место в преподавании иностранного языка научным работникам // Методика и лингвистика. – М., 1981. – С. 21.

Ingliz tilida (asliyat tili): *“In a world turned upside down, this General Assembly Hall is among the strangest sights of all”*³¹.

Fransuz tilida (tarjima tili): *“Dans un monde bouleversé, cette salle de l’Assemblée générale est l’un des spectacles les plus étranges”*.

O‘zbek tilida (tarjima tili): *“Dunyo tubdan o‘zgargan bir paytda BMT Bosh Assambleyasi zali eng g‘alati manzaralardan biriga aylangan”*.

Bu yerda asliyat tilidagi (ingliz) “turned upside down” ifodasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa (tepasini pastga qilgan dunyo), sinxron tarjimada tinglovchi uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Fransuz tiliga qilingan tarjima “bouleversé” (tubdan silkingan) so‘zi bilan ifoda qilinganligi adaptatsiyaga misol bo‘la oladi. O‘zbekcha tarjimada esa “tubdan o‘zgargan” deb adaptatsiya qilingani, ma’noni to‘liq va ravon yetkazishga xizmat qilgan.

Bunday yondashuv tarjimonga asliyatdagi ekspressivlik va emotsional ta’sirni saqlagan holda, tinglovchi uchun tushunarli va qabul qilinadigan tarjima yaratish imkonini beradi. Shu tariqa, semantik transformatsiyalar orqali funksional ekvivalentlik ta’minlangan.

B) Ma’noni saqlash va kuchaytirish (intensifikatsiya)

Ingliz tilida (asliyat tili):

*“Our planet is burning”*³²

Fransuz tilida (tarjima tili):

“Notre planète brûle”

O‘zbek tilida (tarjima tili):

“Sayyoramiz olov ichra yonmoqda”.

O‘zbek tiliga qilingan sinxron tarjimada kuchaytirish strategiyasi qo‘llanilgan: “olov ichra” metaforasi ifodani kuchaytiradi. Bu sinxron tarjimada tinglovchida kuchli emotsional ta’sir qilish uchun qo‘llaniladigan *emotsional adaptatsiya* hisoblanadi. Bu holda tarjimon asliyatdagi ma’noni yo‘qotmasdan, balki uning ta’sirini kuchaytirgan va tinglovchiga yaqinlashtirgan.

C) Qisqartirish va qayta tuzish

Ingliz tilida (asliyat tilida):

*“We must act in solidarity. Far too little assistance has been extended to countries with the fewest capacities to face the challenge”*³³.

Fransuz tilida (tarjima tili):

“Nous devons faire preuve de solidarité. Bien trop peu d’aide a été apportée aux pays les moins équipés pour relever le défi”.

O‘zbek tilida (tarjima tili):

“Keling, hamjihatlikda harakat qilaylik. Imkoniyati cheklangan davlatlarga yetarli yordam ko‘rsatilmayapti”.

³¹ Address to the Opening of the General Debate of the 75th Session of the General Assembly // <https://www.un.org/sg/en/content/sg/speeches/2020-09-22/address-the-opening-of-the-general-debate-of-the-75th-session-of-the-general-assembly#:~:text=António%20Guterres,make%20sure%20we%20choose%20wisely>

³² Address to the Opening of the General Debate of the 75th Session of the General Assembly // <https://www.un.org/sg/en/content/sg/speeches/2020-09-22/address-the-opening-of-the-general-debate-of-the-75th-session-of-the-general-assembly#:~:text=António%20Guterres,make%20sure%20we%20choose%20wisely>

³³ O‘sha manba.

Sinxron tarjimon ushbu jumalarni to'liq so'zma-so'z tarjima qilsa, tarjima uzoq davom etishi mumkin va sinxron tarjimon esa bundan keyingi asliyat tilidagi nutqning bo'lagini eshitmay qolishi mumkin. Shuning uchun ular tarjima matnini qisqartirib, kontekstning asosiy mazmunini saqlagan holda qisqartirish (reduksiya) usulidan foydalangan. Mazmunda o'zgarish yo'q, ammo struktura optimallashtirilgan.

Bunday holatlarda asliyat tilidagi nutq va tarjima qilingan nutqda quyidagi farqlar kuzatiladi:

- leksik birliklar va sintaktik tuzilishlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri moslik mavjud bo'lmazligi;
- axborotning mantiqiy bog'lanish darajasida farqlanishi;
- ifodalarda to'liq semantik ekvivalentlarning yo'qligi, biroq umumiy mazmun saqlanishi.

Sinxron tarjimada muqobili mavjud bo'lmagan birliklar bilan ishlashda tarjimon, asosan, quyidagi ikki asosiy muammoga duch keladi:

1. Tarjima tilida funksional yoki semantik jihatdan mos keladigan birlikning mavjud emasligi.

Bu holatda tarjimon turli strategiyalar – tasviriy tarjima, adaptatsiya, transkripsiya (fonetik jihatdan) yoki matn ichida izoh berish yo'llarini tanlashga majbur bo'ladi. Ammo sinxron tarjimada vaqt cheklangani sababli, izohlash imkoni kam.

2. Birlikning milliy-mafkuraviy xususiyatini saqlab qolish murakkabligi.

Sinxron tarjimada muqobili mavjud bo'lmagan birliklarni ifoda qilishda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- *Amalga ko'ra tanlangan funksional tenglik.* Bu holda tarjimon birlikni aynan tarjima qilmaydi, balki shu ma'noda ishlatiladigan boshqa bir ifoda yoki tushunishga oson bo'lgan strukturani tanlaydi.

- *Ko'p ma'noli tushuncha orqali anglatish.* Umumiy tasavvur beradigan, lekin aniq realiyani emas, balki uning vazifasini bildiruvchi so'z ishlatiladi.

- *Tasviriy tarjima.* Agar so'z qisqa ifodaga ega bo'lmasa, u qisqacha ta'rif tarzida ifoda etiladi.

- *Mahalliyashtirish yoki adaptatsiya.* Birlikning funksiyasiga mos, tarjima tiliga xos element bilan almashtiriladi.

Shu sababli sinxron tarjimon tarjima jarayonida muqobili mavjud bo'lmagan birliklarga duch kelsa, quyidagi usullardan foydalanadi:

1. *Realiyani realiya bilan almashtirish.*

*Accord de Vienne (fr.)*³⁴

"JCPOA" – Joint Comprehensive Plan of Action (ing.)

Vena kelishuvi (o'zb.)

E.Makron nutqining tarjimasida sinxron tarjimon Vena kelishuvi realiyasini (kelishuv nomini) JCPOA deb tarjima qilgan. Bu realiya fransiyalik yoki

³⁴ The address of Emmanuel Macron, President of the French Republic, of the General Debate of the 75th Session of the General Assembly // <https://webtv.un.org/en/asset/k1q/k1qbolmmk2>

o‘zbekistonlik tinglovchi uchun tanish, lekin inglizzabon tinglovchi uchun bu noaniqlik olib kelishi mumkin.

2. *Yaqin ma’nodagi so‘z bilan o‘g‘irish.*

*Muqobili mavjud bo‘lmagan birlik: Cotton slavery*³⁵

- Inglizcha: cotton slavery
- O‘zbekcha: paxta qulligi
- Fransuzcha: esclavage du coton

“Cotton slavery” – tarixiy va madaniy mazmunga ega mazkur birlikni Sh.Mirziyoyev BMT minbarida o‘z nutqida qo‘llagan. Sinxron tarjimada “*paxta qulligi*” deb berilgan, ya’ni yaqin ma’nodagi ta’sirli ibora tanlangan. Emotsional ta’sir saqlangan.

3. *Izohlab (tasvirlash orqali) bayon qilish.*

Muqobili mavjud bo‘lmagan birlik: Mehr operation

- Inglizcha: *Mehr operation – a humanitarian repatriation mission.*
- O‘zbekcha: *Mehr operatsiyasi – insonparvarlik asosida ayol va bolalarni vatanga qaytarish jarayoni*³⁶.

• Fransuzcha: *opération Mehr, une mission de rapatriement humanitaire.*

Bu yerda izoh orqali bayon qilingan. Aslida “*Mehr*” o‘zbek tilida ma’no anglatadi, lekin chet tilida bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri anglashilmasligi mumkin. Shuning uchun batafsil tushuntirish berilgan.

4. *Kontekstual muqobil bilan almashtirish*

*Muqobili mavjud bo‘lmagan birlik: Samarkand – place of dialogue*³⁷

- Inglizcha: *Samarkand – a place of dialogue*
- Fransuzcha: *Samarcande – carrefour du dialogue*
- O‘zbekcha: *Samarqand – muloqot markazi*

Bu yerda “*carrefour*” – yo‘llar kesishmasini anglatadigan metafora sifatida berilgan. Demak, “*place*” so‘zi kontekstga mos holda ko‘proq emotsional birlikka almashtirilgan, ya’ni kontekstual muqobil tanlangan.

5. *Neologizm yaratish*

Muqobili mavjud bo‘lmagan birlik: New Uzbekistan

O‘zbek tilida (asliyat tili): *Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etmoqdamiz*³⁸.

Ingliz tilida (tarjima): *We are creating New Uzbekistan*

Sh.Mirziyoyev nutqida ilk marta tilga olingan “*Yangi O‘zbekiston*” birikmasi o‘zbek tinglovchisi uchun birdek tushunarli hisoblanadi. Inglizzabon yoki anjumanda o‘tirgan boshqa ishtirokchi uchun bu yangi so‘z neologizmdek tuyulishi mumkin. Chunki ishtirokchilar O‘zbekiston Respublikasini oldindan bilishi mumkin, lekin ilk bor ishlatilayotgan “*Yangi O‘zbekiston*” birikmasi haqida boshqa fikr, qandaydir boshqa davlat yoki tashkilot deb tushunilishi mumkin.

³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMTning 2023-yil 20-sentyabrdagi 78-sessiyasidagi nutqi // <https://www.youtube.com/watch?v=twiqHyUmjio>

³⁶ O‘sha manba.

³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMTning 2023-yil 20-sentyabrdagi 78-sessiyasidagi nutqi // <https://www.youtube.com/watch?v=twiqHyUmjio>

³⁸ O‘sha manba.

Shuning uchun bu neologizm hisoblanib, sinxron tarjimon bu birikmani kalka usulida tarjima qilib neologizm yaratgan.

Tadqiqotning **“Ingliz, fransuz, o‘zbek tillarida qilingan sinxron tarjimalardagi transformatsiyalarning qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili”** nomli uchinchi bobida ingliz, fransuz va o‘zbek tillaridagi sinxron tarjimalarda qo‘llanilgan lingvistik transformatsiyalarning turlari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Har uch tildagi (o‘zbek-ingliz, fransuz-o‘zbek, ingliz-fransuz) transformatsiyalar kontekstga mos ravishda tahlil etilib, ular orqali ekvivalentlikni ta’minlash usullari ochib berilgan.

Mazkur bobning birinchi fasli *“O‘zbek-ingliz tillararo sinxron tarjimada transformatsiyalarning qo‘llanilish masalalari”* deb nomlanagan bo‘lib, ushbu tillararo amalga oshirilgan sinxron tarjimalarda transformatsiyalarning qo‘llanilish masalalari misollar yordamida tahlil qilingan.

Har qanday sinxron tarjima jarayonida tillar o‘rtasidagi tuzilish, ifoda uslubi va semantik tizimlar farqi muayyan transformatsiyalarning vujudga kelishini taqozo etadi. Ayniqsa, agglyutinatив xususiyatga ega bo‘lgan o‘zbek tili bilan, analitik va fikrlarni qat’iy so‘z tartibi orqali bayon etuvchi ingliz tili o‘rtasidagi farqlar sinxron tarjimonni turli lingvistik vositalardan samarali foydalanishga majbur qiladi. Barchaga ma’lumki, o‘zbek tili so‘z tartibining nisbatan erkinligi, grammatik ma’nolarni qo‘shimchalar orqali ifoda qilish xususiyatiga ega. Bu esa sintaktik qurilishda keng variativlikni ta’minlaydi.

Masalan, o‘zbek tilida (asliyat tili): *Bizning bosh maqsadimiz 2030-yilga qadar bu ko‘rsatkichni yana 2 barobarga oshirishdir*³⁹.

Ingliz tilida (tarjima tili): *Our main objective is to double this figure by 2030.*

Bu misolda tarjimon so‘zma-so‘zlikdan qochib, grammatik transformatsiya orqali qisqalik va ravonlikni ta’minlagan. O‘zbek tilida *“bosh maqsadimiz – ...dir”* kabi konstruksiya izohlovchi qism orqali ifodalansa, ingliz tilida *“Our main objective is to...”* konstruksiyasiga mos ravishda tarjima qilingan.

Bundan tashqari mazkur nutq bo‘lagida leksik-grammatik transformatsiya ham qo‘llangan bo‘lib, *“double this figure”* – *“yana 2 barobarga oshirish”* deb berilgan. *“Double”* – bir so‘z bilan ifodalangan bo‘lsa, o‘zbekchada ma’lum bir so‘z birikmasi orqali tushuntirilgan. So‘zma-so‘zlikdan qochish va ma’noni ochiq ifodalash orqali funksional ekvivalentlik ta’minlangan.

Sinxron tarjimada generalizatsiya tarjimonga ma’lumotni tezkor va ravon ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa, ro‘yxat yoki ko‘p elementdan iborat birikmalarning tarjima tilida umumlashgan ifoda bilan berilgani tarjimaning funksional samaradorligini oshiradi.

Masalan, o‘zbek tilida (asliyat tili): *Bizning yurtimizda o‘qituvchi va shifokorlar, tadbirkorlar, ishchi va xizmatchilar, hatto maktab o‘quvchilari ham paxta terimiga jalb qilingan edi*⁴⁰.

³⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMTning 2023-yil 20-sentyabrdagi 78-sessiyasidagi nutqi // <https://www.youtube.com/watch?v=twiqHyUmjio>

⁴⁰ O‘sha manba.

Ingliz tilida (tarjima tili): *Teachers and doctors, and, unfortunately, schoolchildren and university students were mobilized to pick cotton.*

Yuqoridagi sinxron tarjimada “o‘qituvchi va shifokorlar, tadbirkorlar, ishchi va xizmatchilar” kabi aniq kasblar sanab o‘tilishi bilan bir qatorda, “ishchi va xizmatchilar” birikmasi sinxron tarjimon tomonidan tushirilib qoldirilgan. Bu usul leksik tushirib qoldirish (omission) deb ataladi. Bizning fikrimizcha, ingliz tilida bu so‘zlar qisqartirilib, umumlashtirilishi, ya’ni guruhlashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi: sanab o‘tilgan kasblarning barchasi “employees” degan umumiy ifodaga aylantirilishi sinxron tarjimonga bir qator qulayliklar tug‘dirgan bo‘lar edi.

Birinchidan, sinxron tarjimonning vaqti tejaladi, qolaversa, umumlashtirgan holda tinglovchiga tushunilishi oson bo‘ladi. Bundan tashqari, “hatto maktab o‘quvchilari ham” ifodasida bir vaqtning o‘zida leksik tushirib qoldirish va leksik qo‘shish kabi transformatsiya turlari ham qo‘llangan:

“hatto” so‘zi “unfortunately”ga almashtirilgan;

“maktab o‘quvchilari” “schoolchildren and university students” kabi leksik birlik (university students) qo‘shilgan.

Bu sinxron tarjima jarayonida vaqtning tejash va axborotni tez, ravon yetkazish maqsadida amalga oshirilgan generalizatsiya hisoblanadi. Gapning semantik ma’nosi saqlangan, lekin undagi elementlar qisqartirilgan va umumlashtirilgan, ma’no aniqroq bo‘lishi uchun esa so‘z qo‘shilgan.

Aslida tarjima qilinayotgan so‘z boshqa tilda mavjud bo‘lsa-da, uning ma’nosini tinglovchi anglamasligi mumkin. Shunday vaziyatlarda tarjimon tavsifiy tarjima, ya’ni termin yoki iborani tavsiflash, yoritish, unga qo‘shimcha ma’lumot qo‘shish usulini tanlaydi. Bu ma’noga aniqlik kiritib, nutqni to‘liq va ta’sirchan qiladi.

Masalan, o‘zbek tilida (asliyat tili): *Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etmoqdamiz*⁴¹.

Ingliz tilida (tarjima tili): *We are creating New Uzbekistan – a law-governed, secular, democratic and social state.*

O‘zbek tilidagi “Yangi O‘zbekiston” iborasi o‘zbek auditoriyasi uchun birdek tushunarli hisoblanadi. Ingliz tilida bu ifoda batafsil tavsif orqali kengaytirilgan: “a law-governed, secular, democratic and social state”. Bu “Yangi O‘zbekiston” tushunchasining mazmunini yanada oydinlashtiruvchi izohli kengaytmadir. Mazkur ifoda ingliz tinglovchisi uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlash maqsadida tarjima tafsilotlar bilan kengaytirilgan, ya’ni semantik transformatsiyaning tavsifiy (izohlash) usuli qo‘llangan.

Ba’zan tarjima jarayonida ma’lumotning ma’nosini tinglovchiga to‘liq yetkazish uchun tarjimon ma’lumotlar ma’nosiga putur yetkazmaydigan qo‘shimcha so‘zlar qo‘shadi.

Masalan, o‘zbek tilida (asliyat tili): *Biz Samarqandda “Ijtimoiy himoya – taraqqiyot sari yo‘l” mavzusida jahon konferensiyasini o‘tkazishni taklif etamiz*⁴².

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMTning 2023-yil 20-sentyabrdagi 78-sessiyasidagi nutqi // <https://www.youtube.com/watch?v=twiqHyUmjio>

Ingliz tilida (tarjima tili): *We propose to hold in our country the World Conference "Social Protection: the Path towards Development" under the auspices of the United Nations.*

O'zbekcha nutqda "*Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligi ostida*" degan qism yo'q. Inglizcha sinxron tarjimada esa "*under the auspices of the United Nations*" birikmasi qo'shilgan. Bu so'z yoki so'z birikmasi qo'shish usuli qo'shimcha axborot kiritish orqali ma'noni to'ldirishga xizmat qiladi. Bu yerda "*BMT homiyligi ostida*" degan ma'lumot qo'shib, sinxron tarjimon tomonidan qo'llangan leksik transformatsiya (so'z qo'shish) orqali tarjimaning mazmunga aniqlik kiritilgan. Qolaversa, mazkur nutq bo'lagini tarjima qilishda, sinxron tarjimon nutqdagi "*Samarqandda*" so'zining o'rniga (ya'ni konferensiya o'tkaziladigan hudud) "*...in our country*" deb umumlashtirib beryapti. Bu orqali sinxron tarjimon leksik transformatsiya hisoblangan generalizatsiyani qo'llagan va ushbu tarjima orqali rejalashtirilayotgan butundunyo konferensiyasi aynan mamlakatimizda (ya'ni O'zbekistonda) o'tkazilishini tinglovchiga yetkazishga muvaffaq bo'lgan.

Sinxron tarjimada antonimik tarjimaning qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Bunda bir tildagi ifoda zid ma'noli shaklda tarjima qilinishi, ammo natijada umumiy ma'no saqlanishidir. Bu usul, ayniqsa, diplomatik nutqlarda, salbiylikni yumshatish yoki uslubiy muloyimlik yaratish maqsadida ishlatiladi.

Masalan, o'zbek tilida (asliyat tili): *O'tgan asrda yuz bergan bu holat endi takrorlanmasligi kerak*⁴³.

Ingliz tilida (tarjima tili): *We must ensure that such practices are left in the past.*

O'zbek tilidagi sinxron tarjimada "*takrorlanmasligi kerak*" – ya'ni "*boshqa qaytarilmasin*" degan bo'lishsizlikni ifodalovchi fe'l mavjud. Ingliz tilida esa bu ifoda antonimik birlik orqali berilgan: "*left in the past*", ya'ni "*o'tmishda qoldirish*". Ko'rinib turganidek, mantiqiy natija bir xil – endi bunday holatlar bo'lmasligi lozimligi ta'kidlanmoqda. So'z to'g'ridan-to'g'ri emas, uning antonimi orqali ifoda qilingan. Bu transformatsiyaning antonomik vositasi qo'llanilishining yorqin namunasidir.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli "*Fransuz-o'zbek tillari doirasida qilingan sinxron tarjimada transformatsiyalarning samaradorligi tadqiqi*" deb nomlangan bo'lib, fransuz va o'zbek tillariaro qilingan sinxron tarjimalarda qo'llanilgan transformatsiyalarning samaradorligi tahlil qilingan.

Tarjimashunoslikda asliyat tilidagi ifoda boshqa tilda to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmasdan, fikr boshqa nuqtai nazardan ifodalanadigan transformatsiya turi modulyatsiyadir. Ya'ni tarkibiy ma'noda fikr saqlanadi, ifoda usuli va yondashuv o'zgaradi, tinglovchi tomonidan xabarning osonroq, ta'sirliroq qabul qilinishi ta'minlanadi.

⁴² O'sha manba.

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMTning 2023-yil 20-sentyabrdagi 78-sessiyasidagi nutqi // <https://www.youtube.com/watch?v=twiqHyUmjio>

Masalan, fransuz tilida (asliyat tili): *Le moment que nous vivons n'est pas une parenthèse: il exprime nos propres insuffisances passées*⁴⁴.

O'zbek tilida (tarjima tili): *Bu kechayotgan murakkab davr aslida oldingi xatolarimiz oqibati sifatida namoyon bo'lmoqda.*

Asliyat tilidagi "o'tmishdagi kamchiliklarimizdandir" degan ibora o'zbek tilida oqibatga asoslangan "o'tmishdagi xatolarimiz oqibati sifatida namoyon bo'lishi" ifodasiga aylantirilgan. Ma'lumot saqlangan, lekin nuqtayi nazar o'zgartirilgan. Bu sinxron tarjimada tinglovchiga ta'sirchan, psixologik va semantik jihatdan moslashtirilgan transformatsiya usulidir.

Sinxron tarjimada *leksik birlik qo'shish (leksik transformatsiyaning bir turi)* – manba matnda qisqacha, umumiy yoki anglashilishi qiyin bo'lgan ifoda tarjimada kengaytirilib, semantik aniqlashtirilish usulidir.

Masalan, fransuz tilida (asliyat tili): *Nous devons une réponse aux 265 millions d'enfants qui n'ont pas accès à l'école...*⁴⁵

O'zbek tilida (tarjima tili): *Bugun ta'lim olish huquqidan mahrum bo'lgan 265 million bolaga javob berishimiz kerak.*

Fransuz tilidagi asliyatda "qui n'ont pas accès à l'école" birikmasi qo'llangan bo'lib, bu so'zma-so'z tarjima qilinganda "maktabga borishga sharoiti yo'q" ma'nosini anglatadi. Sinxron tarjimon esa o'zbek tilida bu iborani "ta'lim olish huquqidan mahrum bo'lgan" tarzida ifoda etgan.

Kompensatsiya – bu tarjima jarayonida bir tilda ifoda etilgan ma'noni ikkinchi tilda ayni joyida emas, balki matnning boshqa nuqtasi yoki boshqa leksik va grammatik struktura orqali berish usulidir.

Masalan, fransuz tilida (asliyat tili):

*Les génocides qui ont fait que vous êtes là aujourd'hui, ils étaient nourris par les discours auxquels nous nous habituons...*⁴⁶

O'zbek tilida (tarjima tili):

Bu kabi ofatlar, millionlab insonlar halokatiga sabab bo'lgan voqealar – biz ko'nikib qolgan va chapaklab turgan noto'g'ri g'oyalarning natijasi edi.

Asliyat tilidagi "Les génocides" – "genotsidlar" so'zi to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmagan. Fransuzcha ifodada juda chuqur siyosiy va tarixiy yuk mavjud: genosid jahon urushlari, Xolokost, Ruanda, Bosniya kabi tarixiy fojialarni nazarda tutadi. Tarjimada esa "millionlab insonlar halokatiga sabab bo'lgan voqealar" deb yumshatilgan, umumiylashtirilgan va ta'sir jihatdan boshqa ifodada berilgan, biroq gumanitar fojia, noto'g'ri g'oyalar orqali sodir bo'lishi, tarixiy xatarning ehtimoli kabi tushunchalar saqlab qoling. Natijada, mazmun yo'qolmagan, balki semantik ta'sir boshqa leksik vositada qoplangan.

Uchinchi bobning so'nggi fasli "Transformatsiyalarning ingliz-fransuz tillariaro sinxron tarjima jarayonidagi ahamiyati va dolzarbligi" deb nomlangan bo'lib, unda ingliz hamda fransuz tillariaro qilingan sinxron tarjimalarda tarjimon

⁴⁴ Discours du Président de la République Française à la 73e Assemblée générale des Nations unies. 25 septembre 2018 // <https://www.youtube.com/watch?v=pfrXzsfIEW0>

⁴⁵ O'sha manba.

⁴⁶ Discours du Président de la République Française à la 73e Assemblée générale des Nations unies. 25 septembre 2018 // <https://www.youtube.com/watch?v=pfrXzsfIEW0>

tomonidan qo‘llangan transformatsiyalarning ahamiyati hamda ularning dolzarbligi tahlil qilingan.

Ma‘lumki, modulyatsiya nafaqat leksik yoki grammatik o‘zgarishni, balki mantiqiy va uslubiy nuqtayi nazardan qayta bayon qilishni ham o‘z ichiga oladi. Bu so‘zni emas, fikrni tarjima qilish usulidir.

Masalan, ingliz tilida (asliyat tili): *I am here to sound the alarm: the world must wake up*⁴⁷.

Fransuz tilida (tarjima tili): *Je suis ici pour tirer la sonnette d’alarme : le monde doit ouvrir les yeux*.

Misolda “wake up” ifodasi asliyat tilida metafora sifatida ishlatilgan. Bu jismoniy uyg‘onish emas, balki: xatarni sezish, anglash, tashabbus ko‘rsatish kabi ma’nolarni qamrab oladi. Bu inson ongining faollashuvini bildiradi.

Fransuzchada esa “*ouvrir les yeux*” – ya’ni “ko‘z ochish” degan ma’noni bergan. Bu ham metafora, lekin insonning idrok etish qobiliyatiga urg‘u beradi.

Yana bir misol:

Misol uchun, ingliz tilida (asliyat tili): *We are on the edge of an abyss – and moving in the wrong direction*⁴⁸.

Fransuz tilida (tarjima tili): *Nous sommes au bord du précipice – et nous continuons de nous en approcher*.

Ingliz tilidagi “*moving in the wrong direction*” ifodasi majoziy, umumiy va abstrakt xarakterga ega. U “yo‘ldan adashmoqda”, “noyoq yo‘lda yurmoqda” ma’nolarini bildiradi, ammo bevosita tahdid yoki muqarrar halokatga ishora qilmaydi.

Fransuz tarjimasida esa bu ifoda “*nous continuons de nous en approcher*” – ya’ni “biz unga (xavfga) yaqinlashmoqdamiz” deb berilgan. Bu jumla o‘z oldida kelgan “*nous sommes au bord du précipice*” (“biz jar yoqasida turibmiz”) ifodasi bilan bog‘liq va uni semantik jihatdan boyitib kelgan. Bu yerda “*wrong direction*” – yo‘nalish xususiyatida berilgan bo‘lsa, tarjimada “*approcher*” – harakat va yaqinlashuv orqali tahdidga yaqinlashish ko‘rsatilmoqda. Ya’ni fikr bir xil, bayon uslubi va qarash nuqtasi boshqacha.

Sinxron tarjima jarayonida manba tilidagi semantik yoki uslubiy ta’sirni boshqa shaklda qayta tiklash usuli kompensatsiyadir. Tarjima modellaridan biri sifatida kompensatsiya quyidagi vaziyatlarda qo‘llaniladi:

- agar asl ifoda tarjima tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilsa, tushunarsiz bo‘lib qolsa yoki madaniy jihatdan mos kelmay qolsa;

- agar majoziy, realiya yoki frazeologik struktura tarjimada yo‘qotilsa.

Yuqoridagi holatlar yuz berganda shu yo‘qotilgan ta’sirni boshqa bir ifoda, shakl yoki kontekstda qayta tiklash zarur bo‘ladi.

Masalan, ingliz tilida (asliyat tili): *We passed the science test. But we are getting an F in Ethics*⁴⁹.

⁴⁷ António Guterres, Secretary-General of the United Nations, addresses the general debate of the 76th Session of the General Assembly of the UN (New York, 2021. 21-27 September) // <https://media.un.org/avlibrary/en/asset/d265/d2655620>

⁴⁸ O‘sha manba.

Fransuz tilida (tarjima tili): *Nous avons réussi l'épreuve de sciences. Mais nous avons un zéro pointé en éthique.*

Bu yerda asl realiya (*F*) berilmagan, balki tarjimada unga teng ekvivalent realiya – “*zéro pointé*” bilan kompensatsiya qilingan. “*F*” bu – anglosakson ta’lim tizimidagi realiya, shu sababli ham u fransuz tinglovchisi uchun begona. “*zéro pointé*” esa fransuz realiyasi, maktab baholash tizimida qo’llanadigan faqat 0 darajadagi o’zlashtirishni emas, balki sharmandagarchilik, ya’ni yomon xulq-atvor ma’nosini ham anglatadi.

Sinxron tarjima jarayonida qo’llaniladigan yana bir leksik-grammatik transformatsiyalardan biri bu kalkalashdir. Kalkalashda asliyat tilidagi ifoda strukturasi, so‘z tartibi va tuzilishi saqlangan holda, tarjima tilida har bir so‘zga semantik ekvivalent topib, so‘zma-so‘z tarzda tarjima qilinadi.

Kalkalashning ikki turi mavjud:

1. Leksik kalkalash – har bir so‘zga mos ekvivalent so‘z qo’llaniladi;
2. Strukturaviy kalkalash – iboraning sintaktik tuzilishi ham saqlanadi.

Masalan, ingliz tilida (asliyat tili): *Solidarity is missing in action – just when we need it most*⁵⁰.

Fransuz tilida (asliyat tili): *La solidarité est absente précisément au moment où nous en avons le plus besoin.*

Bundan ko‘rinib turibdiki, sinxron tarjimon kalka (so‘zma-so‘z) usulidan foydalangani kuzatiladi. Ingliz tilidagi “*Solidarity is missing in action*” ifodasi fransuz tilida “*La solidarité est absente*” tarzida so‘zma-so‘z tarjima qilingan. Bu yerda “*missing in action*” idiomasi to‘g‘ri keladigan “*est absente*” (yo‘q, mavjud emas) ifodasi tanlangan. Ya’ni tarjimon idiomani tarjima tilidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri leksik ekvivalent bilan almashtirgan.

Shuningdek, “*just when we need it most*” ifodasi ham fransuz tilida “*précisément au moment où nous en avons le plus besoin*” tarzida grammatik va sintaktik tuzilishi saqlangan holda berilgan. Bu holda ham tarjimon asliyatdagi so‘z va tuzilmalarni o‘zgarishsiz saqlashga harakat qilgan.

XULOSA

1. Sinxron tarjima – bu ma’lumotni eshitish, semantik jihatdan anglash, kognitiv qayta ishlash va tarjima tilida adekvat tarzda qayta yaratishga asoslangan murakkab jarayon bo‘lib, unda tarjimonning lingvistik kompetensiyasi bilan birga grammatik, semantik hamda pragmatik bilimlarni uyg‘un qo‘llay olishi tarjimaning aniqligi va samaradorligini belgilovchi asosiy omildir.

2. Ingliz va fransuz nutqlarida qo‘llaniladigan ellipsis, kompensatsiya, antonimik almashinuv, leksik torayish va leksik qayta yaratish kabi usullar o‘zbek tiliga sinxron tarjimada ham mos mexanizmlar orqali namoyon bo‘ladi.

⁴⁹ António Guterres, Secretary-General of the United Nations, addresses the general debate of the 76th Session of the General Assembly of the UN (New York, 2021. 21-27 September) // <https://media.un.org/avlibrary/en/asset/d265/d2655620>

⁵⁰ O‘sha manba.

3. Tadqiqot natijalari asosida soʻzlarning kontekstual mosligi, pragmatik maqsadga yoʻnaltirilgan tarjimaga oid yechimlar va sinxron tarjimonning real vaqtdagi qaror qabul qilish qobiliyati sinxron tarjima jarayonida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

4. Sinxron tarjima jarayonida leksik transformatsiya turlari, xususan, modulyatsiya, konkretlashtirish, umumlashtirish, leksik kengayish (dekompressiya) va leksik torayish (kompresiya) kabi usullar sinxron tarjima amaliyotida maʼnoni aniq, taʼsirchan va ixcham shaklda yetkazishga erishishda hal qiluvchi rol oʻynaydi.

5. Sinxron tarjima yuqori darajadagi kognitiv jarayonlarga asoslanadi. Xotira yuklamasi, diqqatni taqsimlash va stress omillari tarjimonning axborotni anglash hamda tezkor tarzda yetkazish qobiliyatiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shu bois, tarjimaning sifatli amalga oshirilishi kognitiv resurslarni samarali boshqarishga bogʻliq.

6. Oʻzbek va ingliz tillari oʻrtasidagi tarjima jarayonida konstruksiyaviy, semantik hamda uslubiy farqlar tarjima transformatsiyalarini qoʻllash zaruratini yuzaga keltiradi. Oʻzbek tilining erkin soʻz tartibi, agglyutinativ qurilishi va badiiylikka moyil boʻlgan ifoda shakllari ingliz tilining qatʼiy sintaktik tuzilmasi hamda analitik xususiyatlari bilan moslashtirilganda, mazmun va shaklni qayta tuzish ehtiyoji yuzaga chiqadi. Ushbu kontekstda sinonimik almashtirish, grammatik transformatsiya, tavsifiy (deskriptiv) tarjima, umumlashtirish (generalizatsiya) va kompensatsiya kabi tarjima usullarining keng qoʻllaniladi.

7. Fransuz-oʻzbek tarjima jarayonida madaniyatararo tafovutlar, idiomatik birliklar va uslubiy konnotatsiyalar toʻgʻridan-toʻgʻri ekvivalent birliklar orqali ifodalanmasligi sababli, semantik va pragmatik moslikni taʼminlovchi tarjima transformatsiyalarining qoʻllanilishi muhim metodologik talab sifatida namoyon boʻladi. Bunday holatlarda tarjimon soʻzma-soʻz tarjimadan voz kechib, kontekstual moslashtirish asosida antonimik almashtirish, modulyatsiya, konkretlashtirish, ellipsis hamda tavsifiy tarjima kabi strategiyalardan foydalanadi. Xususan, fransuz tilining diplomatik hamda rasmiy uslubidagi nutq birliklari oʻzbek tilida funksional va maʼno jihatdan ekvivalent tarzda qayta yaratiladi.

8. Sinxron tarjimada muqobili mavjud boʻlmagan birliklar madaniy, tarixiy va mafkuraviy farqlarga asoslanadi. Ularni toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilish imkoni yoʻqligi sababli, tarjimon funksional muqobil topish, adaptatsiya, tavsifiy tarjima yoki umumlashtirish kabi strategiyalarni qoʻllaydi. Ayniqsa, real vaqt rejimida kechuvchi sinxron tarjimada bu muammolar keskinroq namoyon boʻlib, izoh berish imkoniyati cheklangan holatda nutqning kommunikativ taʼsirini saqlab qolish uchun tarjimonning lingvokulturologik kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

9. Jami 108 ta sinxron tarjima namunalari tahlillarga koʻra ular quyidagi ulushlarga ega: leksik transformatsiyalar – 43 ta (39,81 %), grammatik transformatsiyalar – 38 ta (35,18 %) va semantik transformatsiyalar – 27 ta (25 %)ni tashkil etadi. Bu sinxron tarjima jarayonida eng koʻp qoʻllaniladigan transformatsiya turi – leksik transformatsiyalardir.

10. Sinxron tarjima jarayonida vaqt va ma'lumot oqimi juda tez bo'lgani sababli, tarjimonning nutqni to'liq yozib olish imkoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun, qisqa yozish, shartli belgilar va qisqartmalardan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bu usullar nutqning asosiy mazmunini tez va aniq qayd etish, muhim axborotni yo'qotmaslik va tarjima jarayonida samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Maxsus mashqlar, qisqartmalar ro'yxatini tuzish va ularni amaliyotda qo'llash kabi ko'nikmalarni shakllantirish mazkur muammoni bartaraf etish imkonini beradi.

11. Sinxron tarjimon uchun qisqa muddatli xotiraning rivojlangan bo'lishi juda muhim. Bu ko'nikma nutqni eshitib, bir vaqtning o'zida uni boshqa tilda ifoda etishda asosiy rol o'ynaydi. Qisqa muddatli xotirani rivojlantirish uchun maxsus mashqlar (masalan, raqamlar, so'zlar yoki qisqa gaplarni yodda saqlash va qayta ifoda etish) muntazam ravishda bajarilishi tavsiya etiladi. Bu mashqlar axborotni to'g'ri qabul qilish, saqlash va tezkor ravishda qayta ishlash qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

12. Sinxron tarjima jarayonida texnik uskunalar (quloqchin, mikrofon, audiokanallar, onlayn platformalar) bilan to'g'ri va samarali ishlash muhim ahamiyatga ega. Sinxron tarjimon texnik uskunalarining ishlash prinsiplarini, ulardagi asosiy funksiyalarni va muammolarni bartaraf etish usullarini yaxshi bilishi lozim. Oldindan uskunalarni tekshirib chiqish, simulyatsion sessiyalar o'tkazish hamda texnik muammolarga tayyor bo'lish tarjima jarayonida uzilishlarning oldini olishi va samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

РАУФОВ МИРАЗИЗ МУСТАФАКУЛОВИЧ

**СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ
ТРАНСФОРМАЦИЙ В СИНХРОННОМ ПЕРЕВОДЕ (НА ПРИМЕРЕ
ОФИЦИАЛЬНОГО ДИСКУРСА АНГЛИЙСКОГО, ФРАНЦУЗСКОГО И
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2024.2.PhD/Fil4684.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улутбека. Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (nuu.md.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Сайфуллаев Анвар Исламович доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Официальные оппоненты:	Джумабаева Жамила Шариповна доктор филологических наук, профессор Нишонов Патхиддин Пайсибоевич кандидат филологических наук, доцент
Ведущая организация:	Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Защита диссертации состоится «7» ноября 2025 г. в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 по присуждению ученых степеней при Национальном университете Узбекистана. Адрес: 100174, г. Ташкент, улица Фараби, дом 400. Тел.: (99871) 246-08-62; факс: (99871) 246-65-24; e-mail: nauka@nuu.uz. Национальный университет Узбекистана, Факультет зарубежной филологии (3-этаж, 3-11 аудитория).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрировано за № _____). Адрес: 100174, г. Ташкент, улица Университетская, дом 4. Тел.: (99871) 246-02-24.

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2025 года.
(Реестр протокола рассылки № _____ от «_____» _____ 2025 года).

И.А. Сиддикова
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, док. филол. н., профессор

М.Г. Рабиева
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

С.Э. Камилова
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, док. филол. н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность исследования. Изучение синхронного перевода и его когнитивно-прагматических аспектов является одной из наиболее актуальных проблем мирового переводоведения и лингвистики. Сегодня в мировом переводоведении и переводческой практике появляются новые методы и подходы к анализу языковых трансформаций, происходящих при синхронном переводе. Стоит отметить, что этот процесс напрямую связан с изменениями, происходящими в мировой сфере переводоведения и развитием международных диалогов в последние годы. В настоящее время международные конференции, симпозиумы и различные другие мероприятия требуют использования нескольких языков одновременно и синхронного перевода. Это стимулирует дальнейшее развитие синхронного перевода и проведение широких исследований в этой области.

В ведущих научных центрах мира по лингвистике и переводоведению проводятся сравнительные анализы лингвистических трансформаций, возникающих в процессе синхронного перевода, семантических и стилистических различий между разными языками, а также национально-культурных, прагматических аспектов языковых средств, используемых в переводе. В частности, изучение и сопоставление трансформаций, применяемых при синхронном переводе речей с английского и французского языков на узбекский, является одной из актуальных научных задач в данной области. Анализ трансформаций, возникающих между различными языками в процессе синхронного перевода, и их исследование с точки зрения переводоведения определяют актуальность данной работы.

В нашей стране в целях реализации реформ, направленных на дальнейшее развитие науки и интеллектуального потенциала Республики Узбекистан, особое значение придаётся мерам, предусмотренным постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 22 мая 2018 года № 376 «О мерах по совершенствованию системы издания и перевода лучших примеров мировой литературы на узбекский язык, а также шедевров узбекской литературы на иностранные языки». В данном постановлении подчёркивается важность разработки мер, направленных на перевод произведений мировой литературы на узбекский язык с сохранением их литературно-художественных особенностей¹. Научный анализ трансформаций, возникающих в процессе перевода, становится приоритетной задачей для достижения этих целей.

В постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18 февраля 2019 года № 140 «Об организации деятельности Бюро переводчиков при Министерстве иностранных дел Республики Узбекистан» в качестве одной из основных задач и направлений деятельности Бюро переводчиков при Министерстве иностранных дел определено обеспечение синхронного и

¹ <https://www.lex.uz/uz/docs/-3743182>

последовательного перевода на официальных мероприятиях с участием Президента Республики Узбекистан, Премьер-министра Республики Узбекистан, руководителей и высших должностных лиц иностранных государств и международных организаций². Кроме того, ряд приоритетных задач обозначен в Указе Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года»³, в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»⁴, в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 г. № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования»⁵, в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан»⁶. С этой точки зрения анализ грамматических, семантических трансформаций, возникающих в процессе синхронного перевода, а также исследование их лингвистических особенностей играют важную роль в успешной реализации процесса перевода. Это, в свою очередь, подтверждает актуальность темы диссертации и её научно-практическое значение, а также служит основой для получения значимых научных результатов как на национальном, так и на международном уровне.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики — «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Сравнительный анализ лингвистических трансформаций в области синхронного перевода стал предметом ряда научных исследований учёных различных стран. В частности, в работах таких исследователей, как А.В. Фёдоров, В.Н. Комиссаров, Я.И. Рецкер, Л.С. Бархударов, Г.В. Оссовская, Фельтрак Анна⁷ и других, освещаются основные виды лексико-семантических и грамматических трансформаций, возникающих в процессе синхронного перевода, а также их значение для сохранения содержания оригинального

² <https://lex.uz/ru/docs/-4203697?ONDATE=18.02.2019>

³ <https://lex.uz/docs/-4545884>

⁴ <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

⁵ <https://lex.uz/docs/-3171590?ONDATE=04.07.2023%2000>

⁶ <https://lex.uz/en/docs/-5426736?ONDATE=06.02.2024>

⁷ Фёдоров А.В. Введение в теорию перевода. – М.: ЛГУ, 1983.; Комиссаров В.Н. Теория перевода. – М.: Высшая школа, 1990.; Рецкер Я.И. Теория перевода и интерпретация. – М.: Наука, 1974.; Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975.; Оссовская Г.В. Переводческая деятельность. – М.: Высшая школа, 1985.; Feltroc Anna. Cross-cultural Pragmatic Adjustments in Simultaneous Interpreting. – Oxford: Routledge, 2019.

текста. Кроме того, в этих исследованиях рассматривается роль трансформаций в передаче национально-культурных и стилистических особенностей, когнитивный потенциал синхронного переводчика, механизмы мышления в реальном времени и процессы прагматической адаптации. Особое внимание уделяется также значению импровизации и креативного подхода, активно применяемых в процессе перевода.

